

279 ming nafar o'quvchi 11-sinfni bitirdi. Sherzod Shermatov ularga tabrik yo'lladi

O'zbekiston xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov maktab bitiruvchilari, ularning ota-onalari, o'qituvchi va murabbiylarga tabrik [yo'lladi](#).

“Qadrli o'qituvchi va murabbiylar, aziz o'quvchilar, hurmatli ota-onalar!

Mana, yana bir o'quv yili ortda qoldi. Bugun respublikamizdagi barcha maktablarda “So'nggi qo'ng'iroq” yangrab, 279 ming nafar o'quvchilarimiz 11 yillik ta'lim tizimiga qayta o'tganimizdan keyingi ilk bitiruvchilarga aylanadilar. Ularning hayotida yangi sahifa ochilib, katta hayotga uchirma bo'lishadi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligida Xalq ta'limi tizimida katta islohotlar davri boshlandi. Shu bilan birga, hali oldimizda bajarilishi lozim bo'lgan ulkan vazifalar ko'p va kelgusida ularni ham bosqichma-bosqich hal etib boramiz. Bu borada bizga yaqinda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi dasturilamal bo'lishi, shubhasiz.

Qadrli o'qituvchi va murabbiylar, ota-onalar!

O'tgan o'quv yili davomida qiyin va mas'uliyatli ishni amalga oshirdingiz – farzandlarimizga bilim berdingiz hamda ularni tarbiyaladingiz. Ayni damda o'quvchilarimizning oldida yakuniy imtihonlar va oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlari turibdi, hech shubhasiz, ularning yutuqlarida sizlarning ham katta hissangiz bor.

Aziz bitiruvchilar!

Bugun sizlarning hayotingizda eng quvonchli kun. 11 yil mobaynida bir partada yonma-yon o'tirgan, bir oila a'zolaridek bo'lib qolgan sinfdoshlarning har biri ertadan boshlab o'zining shaxsiy hayotini qurishga kirishadi. Kimdir tahsilni oliy o'quv yurtida davom ettirsa, yana kimdir halol mehnati bilan oilasiga qanot bo'ladi.

Qayerda bo'lmang, maktab partasida olgan bilimlaringiz sizga qo'l kelishiga, kelgusida ularni yanada mustahkamlab borishingizga umid qilaman. Vatanimiz rivoji uchun o'z hissangizni qo'shishingizga aminman.

Barchangizga sihat-salomatlik, ish va o'qishlaringizda kattadan-katta muvaffaqiyatlar yor bo'lishini tilayman!

Maktab dargohidagi so'nggi, mustaqil hayot yo'lingizdagi ilk qo'ng'irog'ingiz muborak bo'lsin! Bilim olishda hamisha davom eting!" – deyiladi vazir tabrigida.

Bundan oldin, maktablarda "So'nggi qo'ng'iroq" faqatgina 1- va 11-sinflar ishtirokida 1 soat davomida o'tkazilishi [xabar qilingandi](#).